

TELEPIN QONUNLARI: “TAXT VORISLIGI VA UNING DAVLAT VA JAMIYATNING KEYINGI RIVOJIGA TA’SIRI”

Sayfulloyeva Kuhinur

O‘zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Telepin qonunlari, uning Xett davlati va jamiyati rivojiga ta’siri har tomonlama tahlil qilinadi. Shuningdek qonunning tarixiy va nazariy asoslari ko‘rib chiqilib, klassik va zamonaviy tadqiqotchilarning qarashlari asosida empirik tahlil qilinadi. Ushbu qonunlar davlat barqarorligi, siyosiy hokimiyatning legitimligiga va ijtimoiy tuzilishga qanday ta’sir o‘tkazganiga alohida e’tibor qaratiladi. Xulosa qismida esa, ushbu qonunlarning Xett jamiyati uchun uzoq muddatli siyosiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etgani ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *Taxt vorisligi, xett davlati, Telepinu qonuni, davlat boshqaruvi*

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of the laws of Telepinu and their impact on the development of the Hittite state and society. It also examines the historical and theoretical foundations of these laws, offering an empirical analysis based on the perspectives of both classical and modern scholars. Particular attention is given to how these laws influenced state stability, the legitimacy of political power, and the social structure. In the conclusion, it is emphasized that these laws held long-term political and social significance for Hittite society.*

Keywords: *Succession to the throne, Hittite state, Telepinu Law, state governance.*

KIRISH

Taxt vorisligi va oliy hokimiyatni topshirish masalasi insoniyat tarixi davomida ilk davlatlarning siyosiy institutlari tuzilmasida doimo muhim o‘rin egallagan. Bu masala ayniqsa qadimgi Xett podsholigida alohida ahamiyat kasb etgan, chunki u yerda asrlar davomida taxtni meros qilib olish tartibining aniq belgilanmagani sababli keskin siyosiy nizolar va inqirozlar yuzaga kelgan.

Miloddan avvalgi XVII asr o‘rtalarida yaratilgan Telepin qonunlari insoniyat tarixidagi taxt vorisligi tartibini batafsil belgilab bergan dastlabki huquqiy hujjatlardan biri bo‘ldi. Ushbu qonun o‘zaro urushlar va sulolaviy nizolarni oldini olish uchun qat’iy qoidalarni o‘rnatdi. Mazkur qonun nafaqat Xett davlatining huquqiy tizimi rivojida muhim bosqich bo‘ldi, balki siyosiy madaniyat shakllanishiga, hokimiyat legitimligini mustahkamlashga va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatdi. Aynan shu sababli, ushbu maqola Telepinu qonunining mazmuni, nazariy asoslari, tarixiy konteksti hamda uning davlat va jamiyat rivojiga ta’sirini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqot davomida taxt vorisligi muammosiga oid klassik va zamonaviy ilmiy yondashuvlar ko‘rib chiqiladi, mavjud



nazariyalar va empirik ma'lumotlar kompleks tahlil qilinadi hamda qonunning Xett podsholigi tarixidagi o'rni tanqidiy baholanadi.

Shuningdek, qonunning siyosiy barqarorlikka, hokimiyat institutlariga va qadimgi jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga ta'siriga alohida e'tibor qaratiladi. Bu esa qadimgi davrda davlat mexanizmlarining evolyutsiyasiga yangicha qarash imkonini beradi.

Adabiyotlar sharhi

Telepin qonunini o'rganishning tarixiy-nazariy asoslari qadimgi sivilizatsiyalarning siyosiy institutlarini qiyosiy tahlil qilish doirasida asoslab beriladi. Taxt vorisligi haqidagi klassik nazariyalar qadimgi mualliflar — Gerodot va Ksenofont asarlarida rivojlangan bo'lib, hokimiyatni qonuniylashtirish va uni meros orqali o'tkazishni tushunishga asos yaratgan. Biroq faqat XIX–XX asrlarda tarixiy-huquqiy tadqiqotlar rivojlanishi va Kichik Osiyo hududida mixxat yozuvlarining topilishi natijasida xett huquqiy tizimini kompleks o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. Brais va Gyuterbok ta'kidlashicha, Telepinu qonuni nafaqat taxt vorisligi tartibini belgilagan, balki tez-tez ichki nizolar va saroy to'ntarishlari yuz berib turgan Xett davlatida siyosiy hayotni barqarorlashtiruvchi vosita bo'lib xizmat qilgan²³.

Telepin qonunini tahlil qilishda muhim nazariy asoslardan biri — uni hokimiyatni ratsional huquqiy normalar orqali institutlashtirishga urinish sifatida ko'rishdir. Bu esa Maks Veber ta'riflagan karizmatik boshqaruvdan huquqiy (legal) boshqaruvga o'tish jarayoniga mos keladi. Telepin davlat parchalanish xavfi bilan yuzlashib, zodagonlar va harbiy aristokratiyaning o'zboshimchaligini cheklashga harakat qilgan. Qonun matniga ko'ra:

1. Taxt erkaklar nasli bo'yicha meros qilib olinishi kerak, agar voris bo'lmasa, taxt erkak qarindoshga o'tishi belgilanadi.

2. Taxtni zodagonlar yoki harbiylar tanlashi bekor qilinadi.

Bu yangilik ko'plab tadqiqotchilar fikricha, barqaror va qonuniy davlat hokimiyatini shakllantirishda hal qiluvchi omil bo'lgan.

-Shuningdek, Telepinu qonunini o'rganishda nemis va turk olimlarining ishlari muhim o'rin tutadi. Xususan: Hans Gyuterbok, Fridrix Kornelius, Trevor Brais, Ilhan Temizsoylar. Hans Gyuterbok birlamchi manbalarni tahlil qilib, qonun faqat taxt vorisligi inqiroziga javob emas, balki butun qadimgi Sharqqa xos bo'lgan hokimiyatni markazlashtirish jarayonining ifodasi ekanini ta'kidlaydi²⁴.

-Fridrix Kornelius esa shuni aytib o'tadiki, qonunda meros tartibi belgilangan bo'lsa-da, amalda hokimiyat hali ham zodagonlar ta'sirida qolgan va bu ba'zan taxtni noqonuniy egallashga (uzurpatsiya) urinishga olib kelgan. Shunga qaramay, aniq qoidalar joriy etilishi

²³ Bryce, Trevor. Xettlar podsholigi. Oxford University Press, 2005.

²⁴ Güterbock, Hans G. "Xett qonunlari". Journal of Cuneiform Studies jurnali, 27-jild, 1-son, 1975, 114–129-betlar.



monarxiya institutining huquqiy asosini yaratdi va davlatni siyosiy beqarorlikdan chiqishga yordam berdi deb o'z qarashlarini bayon qilgan²⁵.

Rossiyalik olimlar ham ushbu qonunlarga o'z fikrlarini keltirib o'tishgan. Bular A.A. Nemirov, V.V. Yemelyanov, I.M. Dyakonov lar bo'lib, A.A. Nemirov Telepinu qonunini hokimiyat o'tishini tartibga soluvchi dastlabki yozma kodifikatsiya deb hisoblaydi, bu esa urf-odatlardan huquqiy me'yorlarga o'tishni bildiradi deb hisoblagan. Ammo, V.V. Yemelyanov qonunning xett boshqaruv modelini shakllantirishdagi rolini ta'kidlab, hukmdor nafaqat muqaddas shaxs, balki qonunlarga rioya etilishini ta'minlovchi shaxs bo'lganini aytadi. I.M. Dyakonov fikrlariga ko'ra esa aynan shu qonun tufayli Xett jamiyati legitimlik inqirozidan chiqib, uzoq muddatli barqarorlikka erishgani va davlat qadimgi dunyoning yetakchi markazlaridan biriga aylanganini ko'rishimiz mumkin²⁶.

Empirik tadqiqotlar haqida gapirganda, xett mixxat yozuvlarini o'qigan arxeologlar va filologlar ishlarini alohida ta'kidlash lozim. Ularning izlanishlari natijasida nafaqat qonun matni, balki uning qabul qilinish sharoiti ham tiklandi. Xattusa va Kichik Osiyoning boshqa hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qonun qabul qilinishi bilan birga, boshqaruv tizimida islohotlar o'tkazilib, sud tizimi o'zgartirishlar kiritilgan va yangi mansabdorlar paydo bo'lgan. Bundan tashqari, xett hujjatlarini Misr va Mesopotamiyaning o'xshash huquqiy hujjatlari bilan solishtirish xett tajribasining o'ziga xosligini aniqlashga imkon berdi. Bu o'ziga xoslik meros tizimida an'anaviy va yangicha elementlarni birlashtirishga bo'lgan urinishda namoyon bo'ladi²⁷. Ammo hozirgi zamonaviy tadqiqotlarning tanqidiy tahlili bir qator bahsli masalalar mavjudligini ko'rsatadi:

Birinchidan, barcha tadqiqotchilar ham Telepinu qonuni sulolaviy nizolarni to'liq bartaraf etgan degan fikrga qo'shilmaydi. Masalan, Braising ta'kidlashicha, qonun joriy etilgandan keyin ham Xett tarixida hokimiyatni noqonuniy egallashga (uzurpatsiyaga) urinishlar bo'lgan. Bu esa zodagonlar va harbiy aristokratiya ta'siri saqlanib qolganini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, qonunning haqiqiy samaradorligi masalasi muhokama qilinadi: ba'zi olimlar uni markazlashgan davlat shakllanishining asosi deb hisoblaydi, boshqalari esa uning ta'siri faqat hukmron elita doirasida bo'lib, keng jamiyat qatlamlariga tarqalmagan deb hisoblaydi.

Uchinchidan, mutaxassislar Telepinu qonuni nafaqat huquqiy, balki mafkuraviy vosita ham bo'lganini aytishadi. Ya'ni, podsho ushbu qonun orqali o'z hokimiyatining qonuniyligini mustahkamlash va yangi siyosiy mafkurani shakllantirishga intilgan. Ilmiy bahslarning muhim yo'nalishlaridan yana biri — qonunning xett jamiyatining ijtimoiy tuzilishiga ta'siri masalasidir. Ko'plab tadqiqotchilar ta'kidlashicha taxt vorisligi

²⁵ Cornelius, Friedrich. Xettlar tarixi. C.H. Beck nashriyoti, 1973

²⁶ Дьяконов И.М. Пути истории: от древнейшего человека до наших дней. Москва: Вест мир, 2004

²⁷ Temizsoy I. Xettlar: sivilizatsiya va davlatchilik. Ankara: Türk Tarih Kurumu, 2013.



qoidalarining mustahkamlanishi barqaror aristokratiya shakllanishiga yordam bergan²⁸. Biroq shu bilan birga qonun boshqa urug'lar va ijtimoiy qatlamlar vakillarining hokimiyatga kirishini cheklagan, bu esa elitaning mustahkamlanishiga olib kelgan, lekin hokimiyat guruhining yangilanish imkoniyatlarini kamaytirgan. Ayrim olimlar, masalan Temizsoy, aynan Telepinu qonuni tufayli xett jamiyatida merosiy aristokratiya tizimi shakllanganini va u keyinchalik davlat institutlari rivojining asosiga aylanganini ta'kidlaydi. Xususan, qonunlar hokimiyat institutlari va boshqaruv mexanizmlariga ta'siri ham muhim ahamiyatga ega. Ya'ni bo'lajak taxt vorisligining aniq qoidalarini joriy etib, siyosiy beqarorlikni kamaytiradi, Telepinu sulolasining uzoq muddat hukmronlik qilishiga sharoit yaratdi. Bu esa o'z navbatida - ma'muriy tizim rivojiga, byurokratiya mustahkamlanishiga, yagona huquqiy makon shakllanishiga yordam berdi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar qonun markaziy hokimiyat bilan hududiy zodagonlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni to'liq bartaraf eta olmaganini ta'kidlashadi. Bu esa vaqti-vaqti bilan mahalliy nizolar va hatto ajralib chiqishga (separatizmga) urinishlarga sabab bo'lgan.

Xett davlatining uzoq muddatli rivojiga qonunning ta'sirini tahlil qilishda uning siyosiy madaniyat va an'analar shakllanishidagi o'rni ham hisobga olinadi. Telepinu qonuni keyingi hukmdorlar uchun o'ziga xos namunaga aylangan bo'lib, ular sulolaviy masalalarni hal etishda qonuniy normalarga tayanishga harakat qilganlar. Bu holat Xett podsholigining keyingi davrlarida va xatto undan tashqarida tuzilgan ko'plab huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan. Ayrim tadqiqotchilar xettlarning taxt vorisligini kodifikatsiya qilish tajribasi boshqa qadimgi Sharq sivilizatsiyalariga, jumladan Urartu, Ossuriya va hatto ilk Yunonistonga ham ta'sir ko'rsatgan deb hisoblaydi. Telepinu qonunini qadimgi dunyo huquqiy tizimlari umumiy rivoji kontekstida ko'rib chiqish alohida ahamiyatga ega. Hokimiyatni topshirishning avvalgi, ko'proq arxaik shakllaridan farqli ravishda (ya'ni karizmatik va muqaddaslikka asoslangan tizimlardan), xett qonuni aniq va ratsional tartiblarni joriy etdi. Bu esa siyosiy-huquqiy tafakkurning yuqori darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Shu sababli Xett davlati an'anaviy boshqaruvdan ratsional-byurokratik boshqaruvga o'tishning ilk namunalaridan biri sifatida qaraladi. Biroq, qonunda an'anaviy elementlar ham saqlanib qolgan bo'lib, bu uning jamiyatning turli qatlamlari tomonidan qabul qilinishini ta'minlagan va uzoq vaqt amal qilishiga yordam bergan. Qonunning xalqaro munosabatlarga ta'siri ham muhim jihatlardan biridir. Taxt vorisligining aniq qoidalari joriy etilishi Xett davlatining xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamladi, siyosiy yo'nalishning barqaror va oldindan bashorat qilinadigan bo'lishini ta'minladi, ichki beqarorlik xavfini kamaytirdi.

²⁸ Емельянов В. В. Закон престолонаследия у хеттов: проблемы и интерпретации // Исследования Древнего Ближнего Востока. 1993. Т. 31. С. 45-68.



Buni diplomatik hujjatlar ham tasdiqlaydi: ularda xett podsholari o'z hokimiyatining qonuniyligini Telepinu qonuniga tayangan holda asoslab, ittifoqchilar va raqiblar oldida o'z nufuzini oshirgan.

Qonunning yana bir muhim xususiyati — uning diniy va muqaddas qarashlar bilan bog'liqligidir. Taxt vorisligi nafaqat huquqiy, balki muqaddas (sakral) jarayon sifatida qaralgan va bu hokimiyatni topshirish marosimlarida o'z ifodasini topgan.

1- Telepinu qonuni podshoga oliy ruhoniy maqomini ham birliktirgan: bu uning muqaddas maqomini kuchaytirgan, diniy va dunyoviy institutlarning birlashuviga xizmat qilgan.

2- Natijada: hokimiyat yanada qonuniylashtirilgan, davlat birligi mustahkamlangan. Zamonaviy tadqiqotlarning tanqidiy tahlili shuni ko'rsatadiki, Telepinu qonunining mohiyati va natijalari haqida turli qarashlar mavjud bo'lib, olimlar uni samarali boshqaruv tizimini yaratgan inqilobiy yangilik deb hisoblaydi, boshqalar esa uni an'ana va islohotlar o'rtasidagi murosaviy yechim sifatida baholaydi.

Har qanday holatda ham, Telepinu qonuni qadimgi Sharq huquqining eng muhim yodgorliklaridan biri bo'lib qoladi. U davlat boshqaruvi, huquqiy madaniyat va jamiyat institutlari rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Xulosa

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, Telepinu qonuni Xett davlati tarixi va umuman qadimgi Sharq sivilizatsiyasi uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ushbu qonun taxt vorisligi tamoyillarini kodifikatsiya qilishning dastlabki namunalaridan biri bo'lib, xett jamiyatiga sulolaviy inqirozlar davridan chiqish va uzoq muddatli siyosiy barqarorlikni ta'minlash imkonini berdi.

Aniq huquqiy me'yorlarning joriy etilishi: hokimiyatning qonuniyligini mustahkamladi, ma'muriy tizim rivojiga turtki berdi, barqaror aristokratiya shakllanishiga xizmat qildi. Telepinu qonuni nafaqat davlatning ichki tuzilishiga, balki uning xalqaro mavqeiga ham ta'sir ko'rsatib, xett podsholarining nufuzini oshirishga yordam berdi.

Shu bilan birga, ayrim cheklovlar va an'anaviy institutlarning saqlanib qolishiga qaramay, bu qonun qadimgi dunyoda huquqiy tafakkur va siyosiy madaniyat rivojida muhim bosqich bo'ldi.

Uni o'rganish: davlat mexanizmlarining shakllanish jarayonlarini, huquq va hokimiyat o'rtasidagi munosabatni, ilk sivilizatsiyalardagi ijtimoiy tuzilma evolyutsiyasini yangicha nuqtai nazardan ko'rib chiqishga imkon beradi.

Shunday qilib, Telepinu qonuni bugungi kunda ham ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda va jamiyat hamda davlat rivojlanish qonuniyatlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bryce, Trevor. Xetlar podsholigi. Oxford University Press, 2005.
2. Güterbock, Hans G. "Xett qonunlari". Journal of Cuneiform Studies jurnali, 27-jild, 1-son, 1975, 114–129 betlar.
3. Cornelius, Friedrich. Xetlar tarixi. C.H. Beck nashriyoti, 1973.
4. Dyakonov I.M. Tarix yo'llari: eng qadimgi insondan hozirgi kungacha. Moskva: "Ves mir", 2004.
5. Temizsoy I. Xetlar: sivilizatsiya va davlatchilik. Ankara: Türk Tarih Kurumu, 2013.
6. Emelyanov V.V. "Xetlarda taxt vorisligi qonuni: muammolar va talqinlar". Ancient Near Eastern Studies jurnali, 31-jild, 1993, 45–68 betlar.

